

Uzbekistan Airways xodimlari “Besh ming qadam” marafonida ishtirok etishdi

2026 15 Iyun

2026-yil 15-iyun kuni "Uzbekistan Airways" AJ va uning tarkibiy bo'linmalari xodimlari ommaviy ertalabki badantarbiya va "Besh ming qadam" marafonida ishtirok etishdi. Toshkent Olimpiya shaharchasida "Ayollar sport olimpiadasi"ning respublika bosqichi doirasida mamlakatimizning barcha hududlaridan ishtirokchilarni birlashtirgan keng ko'lamli sport tadbiri bo'lib o'tdi.



O'tkazilgan aksiyaning asosiy maqsadi sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, ayollar salomatligini mustahkamlash va jismoniy faollik madaniyatini rivojlantirishdan iborat. Olimpiadaning tantanalil ochilish marosimidan oldin ishtirokchilar sog'lomlashtirish mashqlari majmuasini bajarishdi, shundan so'ng go'zallik, g'ayrat va faol uzoq umr ko'rishga intilish ramzi bo'lgan marafonga chiqishdi.

Aviakompaniya jamoasining ayollar qismi ushbu tashabbusni katta ishtiyoq bilan qo'llab-quvvatladi. Bunday loyihalarda ishtirok etish nafaqat salomatlikni mustahkamlash va hayotiy tonusni oshirishga yordam beradi, balki jamoani

birlashtirib, qulay muhit yaratadi.



Uzbekistan Airways sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini to'liq qo'llab-quvvatlaydi va sportga sodiqlik, jamoaviy birlik va faol ijtimoiy pozitsiyani shaxsiy namuna sifatida namoyon etayotgan ayol xodimlari bilan faxrlanadi.